



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 6-mart

117-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Perinatal xizmatlarni takomillashtirish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ–69-sonli qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 94-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Perinatal xizmatlarni takomillashtirish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ–69-sonli qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 94-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida “Perinatal xizmatlarni takomillashtirish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 24-fevraldagi PQ–69-sonli qarori ijrosi haqida Namangan viloyati hokimining 2025-yil 28-fevraldagi 94-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–69-son qarori bilan:

quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentabrdagi “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–296-son qaroriga muvofiq 2023-yil 1-oktabrdan boshlab:

Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika “Ona va bola skrining” markazi negizida Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o‘rinlarda–Markaz);

hududiy perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda “Ona va bola skrining” markazlari negizida Markazning 14 ta hududiy filiallari tashkil etilgani;

b) O‘zbekiston Respublikasi va Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda- OTB) o‘rtasida 2024-yil 20-noyabrda “Perinatal xizmatlarni takomillashtirish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) moliyalashtirish uchun 5 yillik imtiyozli davr bilan 25 yil muddatga jami 100 million AQSH dollari miqdorida qarz bitimi imzolangani;

Loyihaning umumiy qiymati 134,09 million AQSH dollariga teng texniqiqtisodiy hisob-kitobi ishlab chiqilgani va vakolatli davlat organlarida ekspertizadan o‘tkazilgani, bunda 34,09 million

AQSH dollari ekvivalentidagi mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Loyihani amalga oshirishdagi ulushini tashkil etishi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Perinatal xizmatlarni takomillashtirish" loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Perinatal xizmatlarni takomillashtirish" loyihasini amalga oshirish doirasida Osiyo taraqqiyot bankining qarz mablag'larini qaytarish, shu jumladan, qo'shimcha haq va foizlar to'lashning prognoz jadvali 2 ilovaga muvofiq;

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida "Perinatal xizmatlarni takomillashtirish" loyihasini amalga oshirish doirasida tug'uruqqa ko'maklashish sohasidagi tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun tibbiy jihozlar ro'yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilab qo'yilishicha:

Sog'liqni saqlash vazirligi Loyihaning sifatli amalga oshirilishi uchun zarur tashkiliy-texnik tadbirlarning o'z vaqtida o'tkazilishi hamda OTBning qarzidan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash uchun mas'ul ijro etuvchi organ hisoblanishi;

OTB ajratgan qarzni qaytarish, shu jumladan, qarz bo'yicha foiz va komissiyalarni to'lash, boshqa to'lovlar bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi;

Sog'liqni saqlash vazirligiga Loyiha doirasida keltirilgan tovarlarni yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni Davlat budjetidan vazirlik uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirishga ruxsat berilishi;

Loyihani boshqarish funksiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi OTB loyihalarini amalga oshirish guruhi zimmasiga yuklanishi, uning ta'minoti Loyihaning texnik-iqtisodiy parametrlarida ko'rsatilgan OTB mablag'lari va O'zbekiston Respublikasining ulushi hisobidan amalga oshirilishi;

Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Xaridlar markazi" davlat muassasasi Loyiha doirasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha kontragent vazifasini bajarishi;

Loyiha doirasida xarid qilinadigan tibbiy jihozlar tanlov savdolari e'lon qilingunga qadar mustaqil ekspertlarni jalb qilgan holda tibbiyot muassasalarini jihozlash meyorlari asosida har bir muassasa kesimida tahlil qilinishi;

bunda tahlillar natijasiga ko'ra, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan xarid qilinadigan tibbiy jihozlarning ro'yxati, miqdori va texnik tavsiflariga o'zgartirishlar kiritilishi mumkinligi;

3. Tuman Tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)ga quyidagilarni ta'minlash bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklansin:

Loyiha doirasida xarid qilinishi nazarda tutilgan tibbiy jihozlarni yetkazib berishdan oldin obyektlarda jihozlash uchun tegishli xonalarni tayyorlash;

OTB tartibotlariga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, zarur hisobot va hujjatlarning vakolatli bo'lim va idoralarga o'z vaqtida taqdim etilishini tashkil etish;

Loyihani amalga oshirish davrida unda ishtirok etadigan muassasalar ishlarini samarali tashkil etish;

Loyiha doirasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur shart sharoitlarni yaratish.

4. Tuman Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev), manfaatdor bo‘lim, idora va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ–69-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov